

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURDALIYEV ELDOR SHO‘XRATJON O‘G‘LI

**QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I MA‘MURCHILIGIDA SALBIY FARQ
SUMMALARINI QOPLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash
tartibini takomillashtirish masalalari.....5

Турдалиев Элдор Шухратжон угли

Вопросы совершенствования порядка возмещения сумм отрицательной
разницы при администрировании налога на добавленную стоимость.....31

Turdaliev Eldor Shuxratjon o'g'li

Issues of improving the procedure for compensation of negative difference
amounts in the value added tax administration.....61

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TURDALIYEV ELDOR SHO‘XRATJON O‘G‘LI

**QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I MA‘MURCHILIGIDA SALBIY FARQ
SUMMALARINI QOPLASH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2025.1.PhD/Iqt 5080-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Bozorov Akmal Amanovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tashmurodova Buvsara Egamovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ashurova Nasiba Batirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot: **Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti.**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__»_____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__»_____kuni tarqatildi.

(2025-yil «__»_____dagi ___raqamli reestr bayonnomasi).

S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirishning ahamiyati, avvalo, biznes sub‘ektlarining naqd pul oqimlarini yaxshilash orqali investitsiyalarga muhtojlikni kamaytiradi, soliq budjetining foydaliligini oshiradi va korrupsiya hamda soliqdan qochish jarayonlarini cheklaydi. Masalan, Yeropa Kommissiyasi tomonidan tayyorlangan tadqiqotda “salbiy farq summalarini qaytarishda kechikishlar tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ta‘kidlangan. Shu bilan birga, bu tartibni elektron tarzda amalga oshirish hisob yo‘ldoshlari nazorati va samaradorligini 12-15% ga oshirish imkonini beradi”¹. Bundan ko‘rinadiki, salbiy farq summalarini qoplash mexanizmlarini takomillashtirish soliq ma‘murchiligining samaradorligini va iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu soliqni qo‘llashdagi murakkabliklar va yechimlar bo‘yicha soliq bazasini hisoblashda tahlil qilish va hal etilishi zarur bo‘lgan muammolar mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Jahon tajribasiga ko‘ra, iqtisodiy o‘shishning barqarorligini ta‘minlashda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy global iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini va soliq omillarini chuqur tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini takomillashtirish, salbiy farq summalarini qoplash va ularni takomillashtirish muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisobotlarni elektron tarzda taqdim etish va uni undirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda biznesni rivojlantirish uchun qulay investitsion muhit yaratishga alohida e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekistonda soliq tizimini takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, soliq to‘lovlarini amalga oshirish va soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish jarayonlari turli davlatlarda keng joriy etilmoqda. Bunday yondashuv, nafaqat soliq to‘lovchilar va soliq organlari o‘rtasidagi munosabatlarni soddalashtiradi, balki soliq tushumlarini oshirish hamda soliq qonunchiligiga rioya qilishni ham yaxshilaydi. Elektron tizimlar orqali soliqlarni to‘lash jarayoni nafaqat vaqtni tejashga, balki soliq to‘lovchilarning xarajatlarini ham kamaytirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, soliq ma‘lumotlarini yig‘ish, tahlil qilish va qayta ishlashda samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, davlatlar soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilashga harakat qilmoqda. Soliq stavkalarini pasaytirish yoki ayrim soliq turlarini bekor qilish orqali davlatlar tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ular uchun qulay investitsion muhit yaratishga intiladi. Ayniqsa, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun soliqlarni kamaytirish siyosati keng qo‘llanilmoqda. Tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan va raqamli soliq tizimining joriy etilishi nafaqat mahalliy, balki xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim o‘rin tutadi. Davlatlar investitsion muhitni yaxshilash va biznes uchun qulay shart-sharoitlarni ta‘minlash orqali iqtisodiy o‘shishga erishishni maqsad

¹Manba: taxation-customs.ec.europa.eu

qilgan. Soliq tizimidagi islohotlar tadbirkorlikni rag‘batlantirish bilan birga, iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham ijobiy o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, soliq tizimining samaradorligi ortishi natijasida budjetga tushumlar oshadi, bu esa davlat tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy dasturlarni kengaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, soliq yukini kamaytirish orqali iste‘molchilar daromadlari ko‘payishi va ular tomonidan ko‘proq xarajatlar qilinishi mumkin, bu esa ichki iste‘molni oshirishga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning turli sohalarida o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik sababli, soliq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar uzoq muddatda umumiy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot» yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi farmonlari, 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5231-son “Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-sentabrdagi 610-son “Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalari tomonidan ijtimoiy karta orqali xarid qilingan ayrim tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarish tizimini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 11-martdagi 160-son “Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish kiritish haqida”, 2020-yil 14-avgustdagi 489-son “Qo‘shilgan qiymat solig‘i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog‘liq soliq ma‘murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 10-fevraldagi “Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni import qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash muddatini uzaytirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorlari va ushbu sohada boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliqlar yordamida tartibga solish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligida salbiy farq summasini qoplash tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili va soliq ma‘muriyatchiligi vositalaridan samarali foydalanish, tadbirkorlik sub‘ektlarini soliqqa tortish bilan bog‘liq keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar uzoq yillardan beri olib borilib, hozirgi kungacha davom etmoqda. Har bir tadqiqotchi o‘z izlanishlarida qo‘shilgan qiymat solig‘ini salbiy farq summasini qoplab berish vositasida tartibga solish borasida o‘ziga xos nazariy qarashlar va fikrlarni ilgari

surib kelgan. Bu yondashuvlar orqali soliqqa tortish tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Asosan, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha ortiqcha summalarini qaytarish yuzasidan belgilanishining iqtisodiy asoslari haqida fiziokratlar namoyondasi hisoblangan Quesnay, I.A.Mayburov, Yefimova Ye.G., Pospelova Ye.B., D.Rikardo, D.E.Wildasin, J.Berbel, S.Sen, Lindholm, Bentick, Tideman, Needham, R. M. Hurd va R. M. Haig, Bentik, Youngman, J.M., Lindholm, R.W. Alonso, W.A., Musgrave R.M., Lampert Ya., Samuelson P., W.Nordhous, S.Barda. va L.Pavlovoy, X.Volleberg, P.Jliek, X.Global, V.Panskov, G.Agasandyan, I.Gasanov, F.Ereshko, A.Brızgalin singari xorijlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan². Shu bilan birga o‘zbek olimlaridan E.F.Gadoev, Sh.A.Toshmatov, T.S.Malikov, N.H.Xaydarov, A.S.Jo‘raev, N.X.Jumayev, N.R.Quzieva, B.E.Toshmurodova, Z.N.Qurbonov, S.K.Xudoykulov, N.B.Ashurova, U.X.Normurzayev, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, D.Qurbanov, G‘.Safarov, Z.Shoxujaeva, B.Xasanov, O.G‘aybullaev, U.O‘roqov, O.Abduraxmonov, F.Bozorov, A.M.Amanov, singari olimlar ham O‘zbekiston sharoitida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, ulardan samarali foydalanishda moliya-kredit mexanizmlarining qo‘llanilishi, jumladan, ularni soliqqa tortish masalalari bilan bog‘liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar³.

² Quesnay, F. (1756), ‘The General Maxims for the Economic Government of an Agricultural Kingdom’, in R.L. Meek (1963).; Майбуrow И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. – М., 2011. — 558 с.; Ефимова Е.Г., Пospelова Е.Б. Налоги и налогообложение: Учебное пособие. – М.: МИИР, 235с. 2014; Smith, A., (1776), The Wealth of Nations, Book 1. Lond. Methuen Co.; Ricardo, D. (1817), ‘The Principles of Political Economy and Taxation’, Dutton, New York.; Wildasin, D.E. (1982), ‘More on the Neutrality of Land Taxation’, National Tax Journal, vol. 35, no. 1, pp. 105-108.; Youngman, J.M. (1993), ‘The Role of Land Taxation in Tax and Land Policy’, Working Paper, Lincoln Institute of Land Policy, Cambridge, MA, United States, pp. 1-7.; Lindholm, R.W. (1965), ‘Land Taxation and Economic Development’, Land Economics, vol. 41, pp. 121-130.; Alonso, W.A., (1964) Location and land use: toward a general theory of land rent, Harvard University Press, Cambridge.; Musgrave R.M. 1959. The Theory of Public Finance. — NY.: McGraw-Hill, P. 94.; Ламперт Я. 1993. Некоторые современные принципы налогообложения. М.: ГПНТБ, 2-6.; Silvia Appelt, Matej Bajgar, Chiara Criscuolo, Fernando Galindo-Rueda. «Effectiveness of R&D tax incentives in OECD economies» 14 October 2020; Appelt, S, M Bajgar, C Criscuolo and F Galindo-Rueda (2020), «The effects of R&D tax incentives and their role in the innovation policy mix: Findings from the OECD microBeRD project, 2016-19, OECD Science, Technology and Industry Policy Papers, No. 92, OECD Publishing, Paris. Богданова Г.А. Проблемы использования налоговых льгот // Молодой ученый. – 2015. №11. – С. 759-761; Berbel J. et al. (2019) Analysis of irrigation water tariffs and taxes in Europe / WaterPolicy 21 — PP. 806-825.; Brown L, Ayres E. (Edit) The World Watch Reader on Global Environmental Issues. N.Y. — London: W.W. Norton Co., 1998. 358 p.; S.Sen and H.Volleberg. The effectiveness of taxing the carbon content of energy consumption. Journal of Environmental Economics and Management 92 (2018) 74–99. (<https://www.sciencedirect.com>)., Gleick P. H.Global freshwater resources: soft-path solutions tor the 21-th century // Science. 302. No5650. 2003. P. 1524-1527., Пансков В.Г. Налогообложение природных ресурсов: проблемы и пути решения. Журнал Экономика и бизнес, 2018, ст. 91-104., Агасандян Г.А., Гасанов И.И., Ерешко Ф.И. Новые подходы в проблеме комплексного управления водными ресурсами. – М.: ВЦ РАН, 2003. -54 с.; Буздалов И. Природная рента как категория рыночной экономики. // Вопросы экономики. – Москва, 2002. - No3. – С.24-35.;

³ Гадоев Э.Ф. ва бошқ. Билвосита солиқлар: кўшилган қиймат солиғи, акциз солиғи. – Т.: Norma, 2011. – 327 б.; Маликов Т.С., Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Iqtisod-moliya, 2009. 556 б.; Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. И.ф.д. диссертацияси. – Т., 2018. — 247 б.; 68. 71. Jo‘rayev A., Shirinov S., Soliq statistikasi va prognozi: O‘quv qo‘llanma/ O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi; Т.:“IQTISOD-MOLIYA”, 2015. –392b.; Худойкулов С.К., Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. дисс. автореферати. Т., 2019. 77 б.; 61. Қурбонov З.Н., “Солиқ ҳисоби ва аудитининг назарий ва методологик асослари” дис. И.ф.д. Тошкент: БМА, 2008. 272 б.; Нормурзаев У.Х. Солиқ имтиёзларининг самарадорлиги: назария, методология ва амалиёт. Дисс. автореферати. – Т., 2022. – 20. б Ниязметов И.М. Солиқ юкини

Biroq, yuqoridagi izlanishlar bizning fikrimizcha, bugungi kunda respublikamizda soliq vositalari yordamida tartibga solish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish mexanizmlarini takomillashtirish borasidagi bir qator muammolar uchun yechim bo‘lishda yetarli emas va bu ushbu yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlariga rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish tartibini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish maqsadida qo‘shilgan qiymat solig‘ining iqtisodiy mohiyati va tarkibini o‘rganish, ularni nazariy va amaliy jihatlariga baho berish;

qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qaytarish mexanizmini ishlab chiqish va tahlil qilishning zaruriyati,

qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish mexanizmini iqtisodiy samaradorligini baholash va ularning huquqiy asoslariga oid konseptual asoslarni tadqiq etish;

salbiy farq summalarini qoplab berishda qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligiga ta‘sir etuvchi mexanizmlarni aniqlash;

qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farq summalarini belgilab olishda mavjud muammoli masalalarni aniqlash;

qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish bo‘yicha qo‘llaniladigan imtiyozlarni tahlil qilish;

qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish mexanizmlarini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

xorij mamlakatlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farq summalarini qoplab berish tajribasini tadqiq etish hamda ilg‘or tajribalarni O‘zbekiston amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob‘ekti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplash jarayonlari hisoblanadi.

оптималлаштириш: назария, услубият ва амалиёт. Монография. – Т.: Молия, 2016. 192 б.; Сафаров Ф.А. – ТМИ мустақил изланувчиси, и.ф.н. Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортишни такомиллаштириш (Safarov, F. (2019) "IMPROVING THE TAXATION OF NATURAL RESOURCES AND PROPERTIES," International Finance and Accounting: Vol. 2019 : Iss. 6 , Article 12. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2019/iss6/12>

Tadqiqotning predmetini amaldagi qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish orqali vujudga keladigan moliyaviy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qaytarishga doir soliq hisobotini taqdim etish tartibini soliq to‘lovchi soliq organlariga hisobot davrida hosil bo‘lgan salbiy farq summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish taomilini kiritish orqali takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

eksport qilinadigan tovarlar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat‘iy nazar hisobga olish tartibini joriy etish taklifi asoslangan;

yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi ma‘murchiligidagi korxonalariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish imkoniyatini beruvchi tartibini joriy etish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik sub’ektlarining eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplashda soliq to‘lovchilardan bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida soliq organlariga tovarlar bojxona chegarasini kesib o‘tganligi to‘g‘risida taqdim etilgan ma'lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos sifatida qabul qilish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik sub’ekti QQS bo‘yicha ortiqcha to‘langan soliq summasini kelgusi to‘lovlar uchun hisobga olishi hamda soliq hisobotida bu haqda soliq organlarini xabardor etgan holda salbiy QQS summasini qaytarish uchun murojaat qilish huquqiga ega bo‘ladi, bu orqali mablag‘ni hisobga olish yoki qaytarish imkoniyati yaratilgan;

eksport qilinadigan tovarlar uchun ishlatilgan, haqiqatda olingan tovarlar (xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan (to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini soliq to‘lovchining O‘zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag‘iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat‘iy nazar hisobga olish huquqi yaratilgan;

yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi ma‘murchiligidagi korxonalariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish imkoniyatini beruvchi tartib haqidagi taklif amaliyotga joriy etilgan;

eksport operatsiyalarida QQS summasini qoplashda soliq to‘lovchilardan bojxona organi belgisi qo‘yilgan hujjatlarni taqdim etish talab etilmasligi va bojxona

organlari real vaqtda elektron axborot almashinuvi orqali taqdim etgan ma'lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos bo'lishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, statistika agentligi, Soliq qo'mitasi hamda Kadastr agentligi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan qo'shilgan qiymat ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlarning nazariy-uslubiy asoslarini yanada chuqurlashtirish, mazkur muammolar tadqiqotining ilmiy apparatini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot ishida qo'llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, iqtisodchi olimlarning qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplab berish mexanizmlarini takomillashtirishga borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va xolisona tahlil qilish, ilg'or xorij tajribasini o'rganish va umumlashtirish, ma'lumotlar bazasining rasmiy va amaldagi tegishli korxonalaridan olingani, shuningdek, dissertatsiyada aks ettirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqot natijalari davomida ishlab chiqilgan uslubiy taklif va tavsiyalar asosida:

qo'shilgan qiymat solig'i summasini qaytarishga doir soliq hisobotini taqdim etish tartibini soliq to'lovchi soliq organlariga hisobot davrida hosil bo'lgan salbiy farq summasi o'rnini qoplash (qaytarish) uchun murojaat qilish taomilini kiritish orqali takomillashtirish taklifi asosida O'zbekiston Respublikasining O'RQ-812-sonli Qonuni bilan Soliq kodeksining 274-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, tasdiqlandi va amaliyotga joriy etilgan (Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 16/1-109813-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq to'lovchilar uchun ortiqcha vaqt va ovoragarchilik holatlarining oldi olinib, bir elektron xizmatdan boshqa elektron xizmat kirib ariza berish holatlarining kamayishiga olib kelgan;

eksport qilinadigan tovarlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i summasini soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasidagi bank hisobvarag'iga chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat'iy nazar hisobga olish tartibini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-avgustdagi 5231-sonli qarorida o'z aksini topib, amaliyotga joriy etilgan (Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi 16/1-109813-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning

amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlar uchun aniq va tushunarli norma belgilab, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkonini yaratgan;

yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi ma'murchiligidagi korxonalariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish imkoniyatini beruvchi tartibini joriy etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-dekabrda PQ-471-sonli qarori bilan amalga kiritilgan (Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida yirik soliq to'lovchilar uchun qo'shimcha soliq bazalarini shakllantirish imkoniyatini yaratib, budjet tushumlarini oshirishga xizmat qilgan;

tadbirkorlik sub'ektlarining eksport operatsiyalari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini qoplashda soliq to'lovchilardan bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida soliq organlariga tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganligi to'g'risida taqdim etilgan ma'lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos sifatida qabul qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-sonli Farmonida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (Soliq qo'mitasining 2024-yil 28-oktabrdagi ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida QQS to'lovchilardan qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi bekor qilinib, eksport qilingan tovarlar bo'yicha budjetdan QQS qaytarish jarayoni yengillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 179 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy mohiyati va nazariy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** iqtisodiyotini tartibga solishda qo'shilgan qiymat solig'i

ma'muriyatchiligini joriy qilinishi va takomillashuv tendensiyasi va qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligida salbiy farqni qoplash mexanizmining yangi zamonaviy yondashuvlar ahamiyati shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hosil bo'lgan salbiy farqni qoplashga oid xorij tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, ushbu bob materiallarini tayyorlashda qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) jahon miqyosida zamonaviy soliq tizimlarining asosiy bo'lagi sifatida hukumatlar uchun muhim daromad manbai sanaladi va shu bilan birga iqtisodiy qarorlarga ta'sir ko'rsatadi. Uni turli davlatlarda joriy qilish va rivojlantirishga ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillar, siyosiy sabablar va xalqaro tendensiyalar ta'sir qiladi. Tadqiqot ishimiz O'zbekistonda QQSning paydo bo'lishi, uning amalga oshirilishi va muammolari, shuningdek, keyingi islohotlarni o'rganishga qaratilgan. O'zbekiston sharoitida QQS joriy etilish jarayonini tahlil qilish orqali bu tadqiqot uning iqtisodiyotga ko'rsatgan ta'siri, daromadlarni shakllantirishdagi samaradorligi va soliq-budjet siyosatini yaratishdagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

O'zbekiston misolida, QQSning kiritilishi mamlakat moliyaviy tarixi uchun muhim bosqich bo'lib, u umumiy iqtisodiy rivojlanish yo'nalishi bilan chambarchas bog'liq. Buni 1-jadvalda kelib chiqish bosqichlarini keltirib o'tganmiz.

1-jadval

QQS salbiy farqini qoplash amaliyotining bosqichma-bosqich takomillashuvi⁴


Davr	Amaldagi tartib	Xususiyatlar
2019 yilgacha	Asosan hisobga olish	Qaytarish faqat ayrim hollarda va ko'proq to'siqlarga uchragan.
2019- 2021	Islohotlar boshlanishi	Soliq kodeksi yangilanishi, QQS qaytarish tartiblari belgilash boshlandi.
2021–2024	Qonunchilik va qarorlar bilan takomillashtirish	Prezident qarorlari (PQ-5231, PQ-489, PF-471) bilan tizim soddalashdi, elektron ma'lumotlar asosida qaytarish amaliyoti joriy etildi.

O'zbekistonda QQS bo'yicha salbiy farqni tadbirkorlarga budjetdan qaytarish yoki kelgusi to'lovlarga hisobga olish amaliyoti bosqichma-bosqich joriy etildi. Ilgarigi holatni tahlil qilganimizda 2019-yilgacha amalda asosan salbiy farq kelgusi soliq to'lovlaridan hisobga olib borilardi. QQS qaytarish amaliyoti cheklangan holda, faqat ayrim eksportyorlar uchun maxsus ruxsatlar bilan amalga oshirilardi. Bu jarayon ko'p hollarda vaqt talab qilar, ortiqcha byurokratik to'siqlar bo'lardi. Yangicha tartib esa 2019-yildan keyingi Soliq kodeksi islohotlari va 2020–2024-yillarda qabul qilingan Prezident qarorlari va qonunlar asosida salbiy farqni 30 kun ichida qaytarish mexanizmi bosqichma-bosqich joriy etildi. Ayniqsa

⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.

2021-yildan boshlab eksport operatsiyalari bo'yicha QQS qaytarish tartibi soddalashtirildi, 2024-yilda esa elektron ma'lumotlar almashinuvi orqali bojxona ma'lumotlariga asoslanib, hujjat taqdim etish talablari qisqartirildi. Ilgarigi yillarda bu jarayon qiyin va chegaralangan bo'lgan bo'lsa, keyingi islohotlar natijasida tartiblar soddalashtirilib, tezkor va shaffof tizim yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlar aylanma mablag'larini erkin foydalanish imkoniyatini oshirdi va iqtisodiy faollikni rag'batlantirdi.

QQS bo'yicha salbiy farq bu tadbirkorlik sub'ektlari uchun qaytarish yoki hisobga olish huquqini beruvchi soliq mexanizmi bo'lib, asosan eksport, investitsiya va import bilan bog'liq operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. QQS bo'yicha salbiy farqni kelib chiqishining asosiy omillarini 1-rasmda keltirib o'tganmiz.



1-rasm. QQS salbiy farqini shakllantiruvchi omillar va jarayonlar tuzilmasi⁵

Yuqoridagi rasmda eksportda QQS 0 foiz stavka bo'yicha hisoblanadi, ammo eksport uchun ishlatilgan xomashyo va xizmatlar ichki bozorda QQS bilan sotib olinadi. Shu bois xomashyo uchun to'langan QQS summasi yuqori bo'ladi, eksportdan tushum bo'yicha hisoblangan QQS esa 0, natijada salbiy farq shakllanadi. Kapital qo'shilmalar va asosiy vositalar sotib olinishida yangi loyihalar

⁵ Muallif tomonidan tayyorlandi.

yoki ishlab chiqarishni kengaytirishda tadbirkorlar katta miqdorda asosiy vositalar va xizmatlarni QQS bilan xarid qiladi. Bu sarflar sotish hajmidan oldin amalga oshiriladi, natijada ma'lum vaqt davomida salbiy farq yig'iladi. Sotuv hajmining vaqtinchalik pasayishida iqtisodiy faoliyatda mavsumiylik yoki bozor talabining pasayishi tufayli sotishdan tushum kamayadi, lekin xaridlar oldingi reja bo'yicha amalga oshirilgan bo'ladi. Bu holatda ham salbiy farq vujudga keladi. Import operatsiyalarida import qilingan tovarlarga QQS to'lanadi, lekin bu tovarlar hali sotilmagan bo'lsa yoki eksportga yo'naltirilsa, to'langan QQS budjetdan qaytarilishi yoki hisobga olinishi kerak bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq bu tadbirkorlik sub'ekti tomonidan olinadigan (tushumlar bo'yicha hisoblangan) QQS summasi bilan ularning sarf-xarajatlari (sotib olingan tovarlar, xizmatlar va xom-ashyo bo'yicha to'langan) uchun hisoblangan QQS summasi o'rtasidagi tafovutdir. Agar to'langan QQS summasi olinadigan QQSdan ko'proq bo'lsa, salbiy farq yuzaga keladi va bu summa soliq to'lovchining davlat budjeti oldidagi majburiyati emas, balki qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlarga hisobga olinishi kerak bo'lgan mablag' hisoblanadi.

2-jadval

QQS bo'yicha salbiy farq yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi holatlar tahlili⁶

Ssenariy nomi	Holat tavsifi	QQS hisob-kitobi (soddalashtirilgan)	Salbiy farq yuzaga kelish sababi
Eksport operatsiyasi	Korxonada ichki bozorda xomashyo va xizmatlarni QQS bilan xarid qilgan, mahsulotni esa chet elga eksport qilgan (0% stavka).	- xarid qilingan xomashyo bo'yicha QQS = 100 mln so'm - eksport bo'yicha hisoblangan QQS = 0 so'm	Xaridda to'langan QQS eksportda hisoblanmaydi, natijada 100 mln so'm salbiy farq shakllanadi.
Import va ichki bozorda sotish kechikishi	Korxonada import qilib olingan tovarlar uchun QQS to'lagan, lekin ularni hali sotmagan.	- importda to'langan QQS=50 mln so'm - sotish bo'yicha QQS= 0 so'm	Importda to'lov oldin amalga oshirilib, sotish kechikkani uchun vaqtinchalik salbiy farq vujudga keladi.
Ishlab chiqarishda investitsiya bosqichi	Yangi zavod qurish jarayonida asosiy vositalar va qurilish xizmatlari QQS bilan xarid qilingan, lekin hali mahsulot ishlab chiqarish boshlanmagan.	- xarid qilingan uskuna va xizmatlar bo'yicha QQS = 300 mln so'm - sotish bo'yicha QQS = 0 so'm	Ishlab chiqarish boshlanmaguncha tushum yo'q, shu bois to'langan QQS budjetdan qaytarish yoki keyin hisobga olishga asos bo'ladi.
Mavsumiy savdo pasayishi	Korxonada mavsumiy mahsulot ishlab chiqaradi. Xomashyo yili davomida olinadi, lekin sotish faqat mavsum oxirida amalga oshiriladi.	- yanvar–martda xarid QQS = 80 mln so'm - shu oylarda sotish bo'yicha QQS = 20 mln so'm	Vaqtinchalik aylanma farq tufayli 60 mln so'm salbiy farq vujudga keladi.
Talabning kutilmagan pasayishi	Bozorda talab keskin kamaygan, tovarlar sotilmagan, lekin xaridlar reja asosida amalga oshirilgan.	- xarid QQS = 120 mln so'm - sotish QQS = 50 mln so'm	Sotish rejadan kam bo'lgani uchun to'langan QQS qaytarishga asos bo'ladi (salbiy farq 70 mln so'm).

Olimlarning fikrlarini tahlil qilgan holda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq summalarini qoplashga mualliflik ta'rifini yaratganmiz va "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash" — bu soliq to'lovchining hisobot davrida

⁶ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

amalga oshirgan xo'jalik operatsiyalari natijasida QQS to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar summasi bilan uning hisobga olinadigan soliقدan tashqari xarajatlari o'rtasidagi salbiy tafovut yuzaga kelgan hollarda, ushbu summani davlat budjeti tomonidan belgilangan tartibda qaytarish yoki keyingi soliq majburiyatlariga hisobga olish orqali korxonaga aylantirish mablag'larini tiklashga qaratilgan soliq ma'murchiligi jarayonidir.

Yuqoridagi jadvalda QQS bo'yicha salbiy farq ko'pincha eksport faoliyati, import to'lovlari, kapital qo'yilmalar va bozordagi talab o'zgarishi bilan bog'liq holatlarda vujudga keladi. Bu holatlarda tadbirkorlik sub'ektlari davlat budjetiga ortiqcha to'langan QQSni kelgusi to'lovlardan hisobga olish, yoki to'g'ridan-to'g'ri qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. QQS bo'yicha salbiy farq asosan eksport operatsiyalarida 0 % stavka qo'llanilishi, import to'lovlarining sotishdan oldin amalga oshirilishi, investitsiya bosqichida asosiy vositalar xaridi, mavsumiy talab o'zgarishlari va bozorda kutilmagan pasayishlar natijasida yuzaga keladi. Bu holatlarda korxonaga tomonidan to'langan QQS summasi hisoblangan QQSdan ortiq bo'ladi, natijada budjet oldida emas, balki korxonaga foydasiga qaytarish yoki kelgusi to'lovlarga hisobga olish huquqi paydo bo'ladi. Salbiy farqning kelib chiqishi iqtisodiy faoliyatning tabiiy qismi bo'lib, uning to'g'ri va o'z vaqtida qoplab berilishi tadbirkorlik sub'ektlarining aylantirish mablag'larini erkin foydalanishiga zamin yaratadi.

O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) tizimi rivojlanishiga ham ichki islohotlar, ham xalqaro tajribalar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, bu holat uning fiskal siyosatidagi barqaror o'sishni ko'rsatib beradi. Mamlakatda QQS tizimining shakllanishi va uning samaradorligi global omillar va soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan mahalliy o'zgarishlar natijasida yuzaga keldi. Yevropa davlatlari bilan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, QQS stavkalari nisbatan past bo'lsa-da, O'zbekistonda iqtisodiy yukni yengillashtirishga qaratilgan samarali islohotlarga erishilgan. O'zbekiston QQS tizimi boshqa davlatlarning muvaffaqiyatli tajribalarini qabul qilib, soliq yig'ish jarayonidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va yanada adolatli hamda barqaror soliq tizimiga o'tish yo'lida o'zgargan. O'zbekistonning QQS siyosati, asosan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida xalqaro amaliyotlar ta'sirida amalga oshirilgan islohotlar orqali shakllandi. Iqtisodiyotda qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tizimini yaxshilash borasida soliq stavkalarining ayrim o'ziga xosliklarini ta'kidlaydilar. Birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliqlar nafaqat davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi, balki iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish va ustuvor tarmoqlarni moliyalashtirishda qo'shilgan qiymat solig'i muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror o'sishga olib chiqish uchun qo'shilgan qiymat solig'ini undirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur hisoblanadi, chunki bu soliq davlat budjeti daromadlarining taxminan 50 foizini tashkil etadi. Shu sababli, mamlakatdagi soliq tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ikkinchidan, bilvosita soliqlarga xos muammolardan biri soliq stavkalarining yuqoriligi bo'lib, 12 foizlik stavkani yanada pasaytirish korxonalar uchun tadbirkorlikni rag'batlantirish uchun ma'qul bo'lar edi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rni muhim bo‘lib, budget daromadlarining o‘rtacha uchdan bir qismini tashkil etadi (3-jadval). Ushbu jadvalda O‘zbekiston Respublikasining 2012-2021-yillardagi yalpi ichki mahsuloti, budget daromadlari, qo‘shilgan qiymat solig‘i tushumi, soliq to‘lovchilari soni hamda soliqning yalpi ichki mahsulot va budget daromadlaridagi ulushi dinamikasi keltirilgan. Ushbu jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, QQSning tushum dinamikasi yildan yilga ortib borayotganligi, 2024-yilga kelib 2014-yilga nisbatan QQS tushumining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 4,7 foizdan 7,2 foizga qadar ortganligi, QQS to‘lovchilar soni esa 14,5 mingtadan 156,3 mingtaga qadar ortganligini ko‘rish mumkin.

3-jadval
Qo‘shilgan qiymat solig‘ining budget daromadlaridagi hissasi tahlili⁷
mlrd.so‘m

Ko‘rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
YaIM	127,6	153,3	186,8	221,4	255,4	317,5	424,7	529,4	602,6	734,6
Budget daromadlari	21,3	26,2	31,7	36,5	41,0	49,7	79,1	112,2	132,9	164,7
QQS	6,0	7,6	9,5	10,9	11,9	14,7	27,9	37,1	40,2	52,8
Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan undirilgan QQS	3,7	4,3	5,0	6,2	7,0	8,6	13,7	23,7	20,5	25,6
Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan undirilgan QQS	2,2	3,2	4,5	4,6	4,9	6,1	14,1	13,4	19,7	27,2
QQS to‘lovchilar soni (mingta)	14,5	13,6	12,6	11,9	10,8	13,6	15,5	95,6	124,8	156,3
Daromadning YaIMdagi ulushi	16,7	17,1	17,0	16,5	16,1	15,6	18,6	21,2	22,1	22,4
QQSni YaIMdagi ulushi	4,7	4,9	5,1	4,9	4,7	4,6	6,6	7,0	6,7	7,2
QQSni jami daromaddagi ulushi	28,0	28,8	29,9	29,7	29,0	29,6	35,2	33,1	30,2	32,1

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2014–2023-yillar davomida O‘zbekistonda YaIM hajmi 127,6 trln.so‘mdan 734,6 trln.so‘mgacha o‘sgan, ya’ni qariyb 5,7 baravarga ko‘paygan. Budget daromadlari ham shu davrda 21,3 trln.so‘mdan 164,7 trln.so‘mgacha o‘sib, budgetning kengayishini ko‘rsatadi. QQS tushumlari 6 trln.so‘mdan 52,8 trln.so‘mgacha ortib, soliq tushumlaridagi ulushi sezilarli darajada oshgan. Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan yig‘ilgan QQS 2014-yilda 3,7 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 25,6 trln.so‘mga yetgan. Shu bilan birga, Davlat bojxona qo‘mitasi tomonidan yig‘ilgan QQS 2,2 trln.so‘mdan 27,2 trln.so‘mgacha o‘sgani tashqi savdo operatsiyalarida QQSning ahamiyati oshib borganini ko‘rsatadi. QQS to‘lovchilari soni 2014-yilda 14,5 mingta

⁷ Soliq qo‘mitasi tomonidan muallif tomonidan tayyorlandi.

bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 156,3 mingga yetgan, bu soliq ma‘murchiligini qamrab olish darajasi oshganini anglatadi. Daromadning YaIMdagi ulushi 16,7 % dan 22,4 % gacha, QQSning YaIMdagi ulushi esa 4,7 % dan 7,2 % gacha ko‘tarilgan. QQSning umumiy daromadlar tarkibidagi ulushi ham 28 % atrofidan 32,1 % gacha o‘shib, budjetda QQSning strategik ahamiyatini namoyon etadi. Umuman olganda, ma‘lumotlar QQS tushumlarining o‘shishi, uning budjet daromadlaridagi salmog‘i va soliq to‘lovchilari soni ortib borishi orqali soliq ma‘murchiligidagi ijobiy o‘zgarishlarni aks ettiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Qo‘shilgan qiymat solig‘ining salbiy farq summalarini qoplashning amaliy holati tahlili”** tadqiq qilinishi belgilab olingan bo‘lib, asosiy e‘tibor qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farq summalarini iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ta‘siri tahlili va O‘zbekistonda qo‘shilgan qiymat solig‘i ma‘muriyatchiligini rivojlanish qonuniyatlari va undagi tizimli muammolar tahlili shuningdek soliq ma‘muriyatchiligida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha mavjud salbiy farq summalarini qoplashda soliq imtiyozlarining ta‘siri tahlili qilingan.

Birinchi ilmiy yangiligimiz bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha salbiy farqni qoplash (qaytarish) masalasi tadbirkorlik sub‘ektlari uchun moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Amalda soliq to‘lovchilar soliq hisobotini taqdim etar ekan, salbiy farq summasini qaytarish bo‘yicha murojaat qilish huquqiga ega bo‘lishi, shuningdek, bu haqda soliq organlarini oldindan xabardor qilishi belgilangan. Bu taklif soliq hisob-kitoblarida aniqlikni ta‘minlash, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shunday yo‘l bilan salbiy QQS summalarini o‘z vaqtida qoplab berish tizimi tadbirkorlik muhitining iqtisodiy faolligini oshiradi. Buni 4-jadvalda tahlilini keltirib o‘tganmiz.

4-jadval

Soliq to‘lovchilar soliq hisobotini taqdim etishda QQS summasini qoplash bo‘yicha murojaatlar tahlili⁸

mlrd.so‘m

Yillar	Kelib tushgan murojaatlar		Rad etilgan murojaatlar		Murojaat bo‘yicha qoplangan	
	soni	summasi	soni	summasi	soni	summasi
Jami	422	5 120,9	414	4 939,8	8	181,1
2022	184	1 753,1	179	1 730,7	5	22,3
2023	106	1 769,5	104	1 625,7	2	143,8
2024	117	1 144,1	116	1 129,1	1	15,0
2025	15	454,2	15	454,2	1	9,3

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, 2022–2025-yillar mobaynida jami 422 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 5 120,9 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shu davrda rad etilgan murojaatlar soni 414 ta, rad etilgan summasi esa

⁸ Soliq qo‘mitasining ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

4 939,8 mlrd so‘mni tashkil etgan. Murojaatlar asosida qoplab berilgan miqdor 8 ta murojaat bo‘yicha 181,1 mlrd so‘mni tashkil qiladi, bu umumiy murojaatlar sonining taxminan 1,9 %, umumiy summaning esa 3,5 %iga to‘g‘ri keladi. 2022-yilda jami 184 ta murojaat kelib tushgan bo‘lib, ularning qiymati 1 753,1 mlrd.so‘mni tashkil etgan. Ulardan 179 ta murojaat (1 730,7 mlrd so‘m) rad etilgan, faqat 5 ta murojaat bo‘yicha 22,3 mlrd.so‘m qoplab berilgan. Bu yilda qoplash ulushi jami murojaatlarning taxminan 2,7 %iga teng. 2025-yilning dastlabki ma‘lumotlariga ko‘ra, 15 ta murojaat (454,2 mlrd.so‘m) kelib tushgan, barchasi rad etilgan va faqat 1 ta murojaat bo‘yicha 9,3 mlrd.so‘m qoplangan. Bu yilda ham qoplash ulushi past bo‘lib, soni bo‘yicha 6,7 %, summasi bo‘yicha esa taxminan 2,0 %ni tashkil etmoqda.

Ikkinchi ilmiy yangiligimiz bo‘yicha eksport qilinadigan tovarlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini soliq to‘lovchining chet el valyutasi tushumiga bog‘lamasdan hisobga olish tartibini joriy etish taklifi soliq ma‘murchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik sub‘ektlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Amalda ayrim hollarda valyutaning kechikib tushishi QQSni hisobga olish va qaytarish jarayonlarini sekinlashtiradi, bu esa korxonalarining aylanma mablag‘laridan samarali foydalanishini cheklaydi. Buni 5-jadvalda tahlilini keltirib o‘tganmiz.

5-jadval

Eksport qilinadigan tovarlar bo‘yicha QQS tushumi va salbiy farqlar tahlili⁹

mlrd.so‘m

Yillar	To‘langan QQS		Salbiy farq hosil bo‘lish holatlari		Salbiy farq ulushi (%)
	soni	summasi	soni	summasi	
2020	870	10 162,6	312	7 359,5	72%
2021	1 152	12 951,0	370	10 248,7	79%
2022	957	16 685,3	350	13 798,0	83%
2023	835	19 561,5	278	15 496,7	79%
2024	835	21 830,0	251	16 621,6	76%

Ushbu jadvalda salbiy farq ulushi 2020-2024-yillarda 72-76 % atrofida bo‘lib, umumiy QQS tushumi yil sayin oshgan. Jami QQS tushumi 2020-yildan 2024-yilgacha barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyon etgan. Ushbu davrda QQS tushumi 10 162,6 mlrd.so‘mdan 21 830,0 mln.so‘mgacha oshgan, bu iqtisodiyotdagi faoliyat va ishlab chiqarish hajmining o‘shishini anglatadi. Shunga qaramay, salbiy farq ulushi 3,7 % gacha o‘zgargani tahlil qilinayotgan soliq siyosatidagi mavjud muammolarni ko‘rsatadi. Salbiy farqlarning yuqori darajada saqlanib qolishi budjet tushumlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va soliq tizimini isloh qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun soliq boshqaruvi jarayonlarini avtomatlashtirish, hisobot tizimini takomillashtirish hamda elektron soliq hisoblash tizimlarini keng joriy etish muhim. Shuningdek, salbiy

⁹ Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

farqlarning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish, xususan, soliq to'lovchilarning hisob-kitoblari va o'zaro hisoblarida aniqlik darajasini oshirishga e'tibor qaratish kerak. Ijobiy tomoni shundaki, iqtisodiyotdagi o'sish QQS tushumlarining yil sayin ortib borishiga yordam bermoqda, bu esa davlat budjetining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yirik soliq to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini valyutaning bank hisobvarag'iga tushishidan qat'i nazar hisobga olish tartibini joriy etish soliq ma'murchiligini soddalashtirish va hisob-kitoblarda aniqlikni ta'minlashga qaratilgan muhim chora hisoblanadi. Amalda eksport operatsiyalarida chet el valyutasining kechikib tushishi soliq qaytarish jarayonlarini uzaytiradi va aylanma mablag'lardan samarali foydalanishni cheklaydi. Yangi tartib orqali yirik soliq to'lovchilar valyutaning real tushumiga bog'liq bo'lmagan holda QQSni hisobga olish imkoniyatiga ega bo'lib, bu likvidlikni oshirish, moliyaviy oqimlarni barqarorlashtirish hamda hisob-kitob jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi. Buni 6-jadvalda tahlilini keltirib o'tganmiz.

6-jadval

Yirik soliq to'lovchilar tomonidan valyutaning tushishidan qat'iy nazar hisobga olingan QQS ko'rsatkichlari (2021–2024-yy.)¹⁰

mlrd.so'm

Yillar	Korxonalar soni	Hisobga olingan QQS (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)	Umumiy sonidagi ulushi (%)	Umumiy summadagi ulushi (%)
2021	20	30,1	–	20,4	8,6
2022	36	42,1	39,9	36,7	12,1
2023	35	210,4	400,7	35,7	60,2
2024	7	66,8	-68,3	7,1	19,1
Jami	98	349,3	—	100,0	100,0

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2024-yillar mobaynida yirik soliq to'lovchilar tomonidan chet el valyutasi tushumiga bog'liq bo'lmagan holda hisobga olingan QQS summasi va korxonalar sonida yillar kesimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. To'rt yil davomida umumiy 98 ta korxonalar ushbu tartibdan foydalangan bo'lib, jami 349,3 mlrd.so'm QQS hisobga olingan. Jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, hisobga olish tartibining joriy etilishi yirik soliq to'lovchilar uchun aylanma mablag'lardan samarali foydalanish imkonini bergan, ayniqsa 2023-yilda buning natijasi yaqqol ko'zga tashlangan. Shu bilan birga, 2024-yildagi pasayish kelgusida mexanizmni yanada barqarorlashtirish va barcha korxonalar uchun teng shart-sharoit yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchi ilmiy yangilik bo'yicha yirik soliq to'lovchilarga tovarlar importi va ularni (xizmatlarni) realizatsiya qilish jarayonlarida to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summalarini o'zaro hisobga olish imkonini beruvchi tartibni joriy etish taklifi soliq ma'murchiligini optimallashtirish va hisob-kitob jarayonlarini

¹⁰ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

soddalashtirishga qaratilgan. Amalda import qilingan tovarlar bo'yicha to'langan QQS va ichki bozordagi operatsiyalardan hisoblangan QQSni alohida yuritish vaqt va mablag' talab qiladi. Yangi tartib esa bu jarayonlarni bir tizimda muvofiqlashtirish orqali yirik korxonalarining aylanma mablag'laridan samarali foydalanishini ta'minlaydi, budget tushumlarini barqarorlashtiradi hamda hisob-kitoblarda aniqlikni oshiradi. Yirik soliq to'lovchi korxonalar tomonidan 2023–2025-yillar davomida o'zaro hisobga olish imkoniyatidan foydalanish amaliyoti soliq hisob-kitoblarini tizimli tarzda yuritish va moliyaviy oqimlarni samarali boshqarishga xizmat qildi. Ushbu mexanizm orqali import qilingan tovarlar bo'yicha to'langan QQS summasi ichki bozordagi operatsiyalardan hisoblangan QQS bilan o'zaro hisobga olinib, ortiqcha to'lovlarni kamaytirish hamda aylanma mablag'larni tezkor foydalanish imkoni yaratildi. Bu yillar davomida yirik korxonalarining faol ishtirok etishi, mexanizmning amalda samarali qo'llanilayotganidan dalolat beradi. Buni 7-jadvalda tahlilini keltirib o'tganmiz.

7-jadval

Yirik soliq to'lovchilar tomonidan valyutaning tushishidan qat'iy nazar hisobga olingan QQS ko'rsatkichlari (2021–2024-yy.)¹¹

mlrd.so'm

Yillar	Soliq tushumi (mlrd so'm)	Korxonalar soni	Soliq qo'mitasidan Bojxona qo'mitasiga yuborilgan QQS (mlrd so'm)	Soliq tushumidagi ulush (%)	O'sish sur'ati (%)	Soliq qo'mitasidan Bojxona qo'mitasiga QQS ulushi (%)
2023	22 637,8	98	1 904,8	49,2	—	8,4
2024	23 420,5	188	6 248,1	50,8	3,5	26,7
2025	4 934,5	102	1 771,0	10,7	-78,9	35,9
Jami	46 058,3	388	9 923,9	100,0	—	21,5

Jadval ma'lumotlaridan shuni tahlil qilishimiz mumkinki, 2023–2025-yillarda yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'plangan umumiy soliq tushumi 46 058,3 mlrd so'm, Soliq qo'mitasidan Bojxona qo'mitasiga yuborilgan QQS miqdori esa 9 923,9 mlrd so'mni tashkil etdi. 2024-yilda Soliq qo'mitasidan Bojxona qo'mitasiga yuborilgan QQS ulushi 26,7 % gacha ko'tarilgani tizimdan faol foydalanish boshlanganini ko'rsatadi. 2025-yilda umumiy soliq tushumida sezilarli pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, Soliq qo'mitasidan Bojxona qo'mitasiga yuborilgan QQS ulushi 35,9 % gacha o'sgan. Bu yirik korxonalarining hisob-kitobda o'zaro mexanizmdan samarali foydalanish tendensiyasini ko'rsatadi.

To'rtinchi ilmiy yangilik bo'yicha eksport operatsiyalari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini (QQS) qoplash jarayonida tadbirkorlik sub'ektlari uchun amaliy yangiliklar yaratish maqsadida bojxona organlari va soliq organlari o'rtasida real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi tizimi joriy O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-sonli Farmonida o'z aksini topgan

¹¹ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo‘lib, unga ko‘ra, soliq to‘lovchilardan eksport qilingan tovarlarga oid qo‘shimcha hujjatlarni taqdim etish talab etilmaydi, chunki tovarlarning bojxona chegarasini kesib o‘tganligi haqidagi ma‘lumotlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri bojxona organlaridan soliq organlariga elektron shaklda yuboriladi. Bu esa, bir tomondan, QQSni qoplash jarayonini soddalashtirsa, ikkinchi tomondan, eksport operatsiyalarida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlik sub’ektlarining mablag‘larini o‘z vaqtida qaytarish va ularning aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyati kengaydi. Eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) summasini qoplash jarayonida tadbirkorlik sub’ektlari uchun ortiqcha qog‘ozbozlikni kamaytirish va jarayonlarni raqamlashtirish maqsadida muhim islohot amalga oshirildi. Endi soliq to‘lovchilardan tovarlar belgilangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi bojxona organining belgisi qo‘yilgan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish talab etilmaydi. Buni 8-jadvalda tahlilini keltirib o‘tganmiz. Ushbu jadval ma‘lumotlari PF-132-sonli Farmon qabul qilinishiga qadar va undan keyin tadbirkorlik sub’ektlarining qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) qoplashga doir arizalar bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar holatini ko‘rsatadi. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Farmon qabul qilinishidan oldingi davrda 291 ta korxonadan jami 1 199 ta ariza berilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 5 177,4 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu arizalar rad etilganligi, amaldagi tartib-taomillardagi ortiqcha qog‘ozbozlik va ma‘lumotlar almashinuvidagi cheklovlar natijasi ekanini ko‘rsatadi. Farmon qabul qilinganidan keyingi davrda esa, 32 ta korxonadan 61 ta ariza ijro etilgan bo‘lib, ularning umumiy qiymati 995,0 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu raqamlar amaldagi islohotlar natijasida QQSni qaytarish jarayoni soddalashgani, elektron ma‘lumot almashinuvi joriy etilgani va natijada tadbirkorlik sub’ektlari uchun byurokratik to‘siqlar keskin qisqarganini anglatadi.

8-jadval

Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan valyutaning tushishidan qat‘iy nazar hisobga olingan QQS ko‘rsatkichlari (2021–2024-yy.)¹²

mlrd.so‘m

Yillar	PF-132-sonli farmoni qabul qilingunga qadar			PF-132-sonli farmoni qabul qilingandan so‘ng		
	Korxonasi soni	Ariza soni	Summasi	Korxonasi soni	Ariza soni	Summasi
Jami	291	1 199	5 177,4	32	61	995,0
2023-yil	118	401	1 896,4	-	-	-
2024-yil	173	798	3 281,0	16	34	471,3
2025-yil	-	-	-	16	27	523,7

¹² Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlari Farmon qabul qilinishi orqali rad etilgan arizalar ulushi sezilarli darajada kamayganini va ijro etilgan arizalar qiymati sezilarli oshganini ko'rsatadi. Bu holat QQSni qoplash tizimidagi ochiqlik, avtomatlashtirish va samaradorlik darajasi oshib borganidan dalolat beradi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'shilgan qiymat solig'ini salbiy farqni qoplash va hisobga olish tizimini takomillashtirish yo'nalishida amalga oshirilgan islohotlar tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati uchun muhim yengilliklar yaratdi. Jumladan, eksport operatsiyalari bo'yicha bojxona organlari ma'lumotlarini elektron tarzda soliq organlariga uzatish orqali ortiqcha hujjatlar talab qilinishi bekor qilindi, chet el valyutasi tushumiga bog'liq bo'lmagan holda QQSni hisobga olish amaliyoti joriy etildi hamda yirik soliq to'lovchilar uchun import va realizatsiya operatsiyalarida o'zaro hisobga olish tartibi belgilandi. Shuningdek, PF-132-sonli Farmon qabul qilinishi natijasida rad etilgan arizalar soni va summasi keskin kamayib, soliqni qoplash bo'yicha ijro etilgan arizalar hajmi oshdi. Bu o'zgarishlar soliq ma'murchiligini raqamlashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va tadbirkorlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.


Dissertatsiyaning **“Soliq ma'muriyatchiligida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligida salbiy farq summasini qoplashga oid mavjud yondashuvlar modifikatsiyasining asosiy yo'nalishlari hamda Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha mavjud salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish orqali soliqlarni tartibga solish funksiyasi samaradorligini oshirish o'rganilgan.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligida salbiy farq summasini qoplashga oid yondashuvlar haqida tahliliy materialni tayyorlashda, birinchi navbatda, soliqni to'lash va u bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tushunish zarur. Salbiy farq summasi QQS to'lovchi sub'ektlarning aniq bir tovar yoki xizmat uchun soliq miqdorini to'lagan bo'lsa ham, aslida ushbu summa oldindan to'langan yoki qayta hisoblangan soliq bo'lishi mumkin. Shuning uchun salbiy farq summasiga nisbatan amalga oshiriladigan yondashuvlar, ko'pincha soliq ma'muriyati va soliq raqamlari o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, bunday hisob-kitoblarning yanada aniq va shaffof bo'lishini ta'minlash maqsadida modifikatsiya qilinadi. QQS ma'muriyatida salbiy farq summasini qoplashga oid mavjud yondashuvlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda modifikatsiya qilinishi mumkin.

Avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Bunda mamlakatlar, soliq ma'muriyatini avtomatlashtirish orqali salbiy farq summasini aniqlash va qoplash jarayonini soddalashtirishga intilishmoqda. Ya'ni, maxsus yoki raqamli platformalar orqali soliq to'lovchilarning ko'rsatgan faoliyati va soliq miqdorini avtomatik tarzda hisoblash mumkin. Bunda, sistema har qanday tovar va xizmat uchun QQS ni aniq hisoblab, agar salbiy farq (ya'ni, qiymat bilan soliq orasidagi farq) bo'lsa, uni avtomatik tarzda o'zgartiradi va to'lovchiga haddan ortiqliklarni taqdim etadi. Mazkur jarayon raqamli soliq xizmatlarini, elektron shaxslarning raqamli imzo orqali jo'natishni, hamda elektron hisob-kitoblarni joriy

qilishni o'z ichiga oladi. Soliq ma'muriyatini avtomatlashtirish orqali salbiy farq summasini aniqlash va qoplash jarayonini soddalashtirishda zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, soliq to'lovchilarga nisbatan adolatli va ravon yordam ko'rsatishga imkon beradi. Bu jarayonni avtomatlashtirish nafaqat tekshiruvlar samaradorligini oshirish, balki soliq ma'muriyatining aniq va tez ishlashini ham ta'minlaydi.

QQSni qaytarish tizimi iqtisodiy faoliyatda muhim o'rin tutadigan moliyaviy instrumentlardan biri bo'lib, u tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash va ularning aylanma mablag'larini tezkor tiklash orqali biznes faoliyatini rag'batlantiradi. Bu tizimning samarali yo'lga qo'yilishi natijasida korxonalar eksport operatsiyalaridan keyin to'langan QQS summalarini o'z vaqtida va to'liq qaytarib olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning likvidligini saqlash, investitsiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish hamda yangi ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi. Shu bilan birga, QQSni qaytarish jarayonlarining aniq, shaffof va avtomatlashtirilgan tarzda tashkil etilishi soliq ma'murchiligi tizimining ishonchliligini oshiradi, ortiqcha byurokratik to'siqlarni kamaytiradi va soliq to'lovchilar hamda davlat organlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Ushbu 2-rasmdagi sxemada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy farqlarni qoplash jarayonida avtomatlashtirilgan va tahlil asosidagi yondashuvni ifodalaydi.




2-rasm. QQS salbiy farq summasini avtomatlashtirilgan tarzda qaytarish mexanizmi¹³

Ushbu rasmda QQS salbiy farqini tadbirkorlik sub'ektlariga qaytarish jarayoni bosqichma-bosqich ko'rsatilgan. Jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi ya'ni soliq to'lovchi hisobot taqdim etadi va bu jarayonning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Avtomatik tekshiruv tizimida (AI/Big Data asosida) taqdim etilgan ma'lumotlar elektron tizimda avvaldan belgilangan algoritmlar orqali tekshiriladi. Xavf darajasiga qarab tezkor yoki to'liq tekshiruvda soliq organi xavf tahlili asosida qaysi darajada tekshirish o'tkazilishini belgilaydi. QQS salbiy farqini qaytarishda (bank orqali) tegishli tekshiruvlardan so'ng

¹³ Muallif tomonidan tayyorlandi.

tadbirkorning hisob raqamiga mablag‘ qaytariladi. Soliq to‘lovchining hisob raqamiga tushum tushishida qaytarilgan QQS mablag‘i tadbirkorning aylanma mablag‘larini to‘ldiradi. Aylanma mablag‘larning oshishi bo‘yicha likvidlikni ta‘minlaydi, korxonaning moliyaviy imkoniyatlarini kuchaytiradi. Tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatining moliyaviy quvvati oshadi deganimizda jarayonning yakuniy iqtisodiy samarasi yuzaga keladi.

Birinchi ilmiy yangilik bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i tizimida soliqning salbiy farq summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) jarayonini takomillashtirish iqtisodiy faol sub‘ektlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda amaldagi tartibda soliq to‘lovchi hisobot taqdim etganda, QQSning salbiy farq summasini qaytarish uchun belgilangan shaklda murojaat yo‘llaydi va soliq organlari tomonidan uning asosliliigi tekshiriladi. Biroq amaliyotda ushbu jarayonda ma‘lum byurokratik to‘siqlar, ma‘lumotlar almashinuvining yetarli darajada avtomatlashmaganligi va murojaatlarni ko‘rib chiqish muddatlarining cho‘zilishi kuzatilmoqda. Bu esa tadbirkorlik sub‘ektlarining aylanma mablag‘lariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.



3-rasm. QQS salbiy farq summasini avtomatlashtirilgan tarzda qaytarish mexanizmi¹⁴

Ushbu 3.Rasmda sxema QQS salbiy farqini qaytarish bo‘yicha tadbirkorlarning murojaatini soddalashtirish va avtomatlashtirishni ko‘zda tutadi. Amaldagi tizimda murojaat qilish va tekshirish jarayonlari ko‘p bosqichli hamda qog‘ozbozlikka boy bo‘lib, bu mablag‘larning tadbirkorlarga o‘z vaqtida qaytarilishida kechikishlarga sabab bo‘lmoqda. Taklif etilayotgan tizim esa barcha bosqichlarni raqamlashtirish orqali jarayonni tezkor va shaffof qilishni maqsad qiladi. Tadbirkor interaktiv platforma orqali soliq hisobotini yuborish orqali jarayonni boshlaydi. Hisobotda avtomatik ravishda salbiy farq summasi hisoblanadi va qaytarish talabi ko‘rsatiladi. Soliq to‘lovchi hisobot taqdim etar ekan, alohida

¹⁴ Muallif tomonidan tayyorlandi.


ariza yozishga ehtiyoj qolmaydi. Bu ma'lumotlar hisobotning o'z ichida belgilanadi, bu esa ikki karra murojaat qilish amaliyotini bartaraf etadi. Hisobot taqdim etilgan zahoti soliq organlariga avtomatik ravishda elektron xabar yuboriladi. Bu ma'lumotlar real vaqt rejimida ishlaydigan axborot tizimi orqali yetkaziladi, bu esa tekshirish jarayonini jadallashtiradi. Soliq organlari murojaatni qabul qilgach, avtomatik xavf tahlil tizimi orqali korxonaning faoliyati va hisobotlarining ishonchliligi baholanadi. Rizo darajasiga qarab, yo tezkor tekshiruv (masalan, ishonchli soliq to'lovchilar uchun), yoki to'liq tekshiruv amalga oshiriladi. Tekshirish natijasi ijobiy bo'lsa, QQS summasi tadbirkorning bank hisobvarag'iga avtomatik o'tkaziladi. Bu bosqichda moliya va soliq organlari o'rtasidagi elektron integratsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega. Hisobot taqdim etish, xabar yuborish va xavf tahlili bosqichlarini yagona raqamli platformada to'liq integratsiya qilish orqali inson omilini minimallashtirish lozim. Soliq to'lovchilarning soliq intizomi, moliyaviy holati va oldingi tekshirish natijalari asosida avtomatik reyting tizimini joriy etish orqali tekshirishni differensiallash kerak. Soliq organlari, bojxona, bank va moliya organlari o'rtasida real vaqtda ma'lumot almashishni ta'minlaydigan yagona axborot maydonini yaratish zarur. Bu tekshirishlarning sifatini oshirib, vaqtni tejaydi. Murojaat holatini onlayn kuzatish imkonini beruvchi interfeys orqali tadbirkorlar jarayon shaffofligini ta'minlaydi va ortiqcha idoralarga borish ehtiyojini kamaytiradi. Taklif etilayotgan tizim QQS salbiy farqini qaytarish jarayonini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va mablag'larning tadbirkorlarga o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat soliq ma'murchiligini takomillashtiradi, balki tadbirkorlik sub'ektlarining aylanma mablag'larini erkinlashtirish orqali iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi ilmiy yangilik bo'yicha hozirgi amaliy tartibda eksport operatsiyalari bo'yicha 0 foizli QQS stavkasi qo'llaniladi. Biroq, amalda soliq to'lovchi eksport qilingan tovarlar yoki xizmatlar bo'yicha QQSni qaytarish yoki hisobga olish huquqini faqatgina chet el valyutasidagi tushum O'zbekistondagi bank hisobvarag'iga kelib tushganidan so'ng amalga oshira oladi. Bu esa amalda tadbirkorlik sub'ektlarining aylanma mablag'larining uzoq vaqt "muzlab" qolishi, likvidlikning pasayishi va moliyaviy harakatchanlikning cheklanishiga olib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, taklif etilayotgan yangicha yondashuv eksport qilinadigan tovarlar bo'yicha QQS summasini, chet el valyutasi tushumi kelib tushishidan qat'iy nazar, hisobga olish imkoniyatini berishdir.

Ushbu 4-rasmda eksport qiluvchi korxonalar uchun valyuta tushumi kelib tushishidan qat'iy nazar qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish jarayonini bosqichma-bosqich shaklda aks ettiradi. Birinchi bosqichda eksport qiluvchi korxonalar faoliyatini amalga oshiradi va keyin tovar yoki xizmatni tashqi bozorga chiqaradi.

Keyinchalik eksport operatsiyasi buxgalteriya va soliq hisobotlarida ko'rsatiladi hamda QQS hisob-kitoblari amalga oshiriladi. Sxemadagi markaziy blok — "Valyuta tushumisiz QQSni hisobga oladi" — bu taklifning asosiy

mazmunini ifoda etadi. Unga ko‘ra, eksportdan valyuta tushumi amalga oshmagan bo‘lsa ham, korxonaga QQSni hisobga olish huquqiga ega bo‘ladi.



4-rasm. Eksport operatsiyalari bo‘yicha QQSni valyuta tushumisiz hisobga olishning takomillashtirilgan mexanizmi¹⁵


Keyingi bosqichda soliq organlari tomonidan tekshiruv o‘tkaziladi va natijada QQSni qaytarish yoki hisobga olish amalga oshiriladi. Jarayonning izchilligi strelkalar orqali yuqoridan pastga qarab ko‘rsatilgan bo‘lib, bu tizimning avtomatlashgan va nazoratli amal qilishini ifoda etadi. Taklif sifatida ushbu tizimni amaliy hayotga tatbiq etish uchun eksport operatsiyalarining elektron hisobotini soliq organlari bilan integratsiyalash, valyuta tushumi kelib tushmagan holatlarda QQSni hisobga olishni aniq mezonlar asosida belgilash, soliq tekshiruvlarini qisqartiruvchi avtomatik risk tahlili tizimini joriy etish hamda eksportchilar uchun raqamli platformalar orqali ariza berish jarayonini soddalashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, ma‘lumot almashinuvi tizimini kuchaytirish va soliq qaytarish muddatlarini qisqartirish orqali korxonalarining aylanma mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Uchinchi ilmiy yangilik bo‘yicha yirik soliq to‘lovchilar faoliyatini samarali tarzda qo‘llab-quvvatlash, ularning soliq yukini optimallashtirish va aylanma mablag‘lardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida, hududlararo davlat soliq inspeksiyasi ma‘murchiligidagi korxonalariga tovarlarni import qilishda hamda tovarlar (xizmatlar)ni realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish imkonini beruvchi tartibni joriy etish taklifi ishlab chiqildi. Ushbu taklif amaliy jihatdan QQSning ikki karra to‘lanishini oldini oladi va yirik korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Ushbu rasmda yirik soliq to‘lovchi korxonalar uchun import va realizatsiya operatsiyalarida qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS)ni o‘zaro hisobga olish jarayonini izchil ko‘rsatib beradi. Birinchi bosqichda korxonaga tovarlarni import qiladi yoki


¹⁵ Muallif tomonidan tayyorlandi.

realizatsiya qiladi. Import jarayonida to‘langan QQS va realizatsiya bo‘yicha hisoblangan QQS alohida hisobga olinadi.



5-rasm. Yirik soliq to‘lovchilar uchun import va realizatsiyada QQSni o‘zaro hisobga olish tartibini takomillashtirilgan mexanizmi¹⁶

Keyinchalik ushbu ikki summa markazda joylashgan maxsus mexanizm orqali o‘zaro hisobga olinadi. Bu tizim orqali importda to‘langan QQS realizatsiyada hisoblangan QQSga nisbatan qoplanadi yoki hisobga olinadi, natijada ikki marotaba to‘lov holatlari yo‘qotiladi. Jarayon yakunida soliq organlari tomonidan tekshiruv amalga oshiriladi va natijada soliq majburiyatlari kamayadi yoki ortiqcha to‘langan summa qaytariladi. Bunday tizimning joriy etilishi yirik soliq to‘lovchilarning aylanma mablag‘laridan samarali foydalanishini ta‘minlaydi, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi va soliq ma‘murchiligini soddalashtiradi. Shu bilan birga, QQS bo‘yicha hisob-kitoblarning aniqligi va shaffofligi oshadi, bu esa nazorat jarayonlarini yengillashtiradi hamda ortiqcha to‘lovlarni qisqartirish imkonini beradi.



6-rasm. Eksport operatsiyalarida QQS summasini qoplashda bojxona ma‘lumotlarini elektron tarzda almashish mexanizmi¹⁷

To‘rtinchi ilmiy yangilik bo‘yicha eksport faoliyatini rag‘batlantirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida,

¹⁶ Muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁷ Muallif tomonidan tayyorlandi.

tadbirkorlik sub'ektlarining eksport operatsiyalari bo'yicha QQS summasini qoplashda yangi tartib joriy etish taklifi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi orqali soliq organlariga tovarlarning bojxona chegarasini kesib o'tganligi haqida taqdim etilgan ma'lumotlar ushbu tovarlar haqiqatan ham eksport qilinganligini tasdiqlovchi asosiy manba sifatida qabul qilinadi. Bu yondashuv hisobot berish jarayonlarini avtomatlashtiradi, ortiqcha qog'ozbozlikni kamaytiradi va tadbirkorlar uchun QQSni tez va shaffof qoplash imkoniyatini yaratadi.

Ushbu rasmda eksport operatsiyalari jarayonida qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash tizimini gorizontal shaklida bosqichma-bosqich ko'rsatib beradi. Birinchi bosqichda soliq to'lovchi (eksportchi) tovarni tashqi bozorga chiqarish orqali eksport operatsiyasini amalga oshiradi. Keyingi bosqichda bojxona organlari tovarning chegara orqali o'tishini rasmiylashtiradi va tegishli ma'lumotni yaratadi. Uchinchi bosqichda elektron ma'lumot almashinuvi tizimi ishga tushadi va tovarning eksport qilinganligi haqidagi ma'lumot real vaqt rejimida soliq organlariga uzatiladi. Keyin soliq organlari ushbu ma'lumotni qabul qilib, QQSni qoplash uchun asos sifatida tekshiradi va tasdiqlaydi. Ushbu chizmani oxirida QQS natijasi bloki joylashgan bo'lib, bu jarayonning samarali va shaffof amalga oshishini anglatadi. Sxemadagi bosqichlar ketma-ketligi va markaziy chiziq orqali bog'lanishi ma'lumot oqimining izchilligini, avtomatlashgan tizimdagi hamkorlikni hamda hujjat ayirboshlashni soddalashtirishni ifoda etadi. Taklif sifatida ushbu chizmada ko'rsatilgan jarayonlarni amalda tatbiq etish uchun bojxona va soliq organlari o'rtasidagi ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilish, eksportchilar uchun yagona elektron platforma orqali ariza berish tizimini joriy etish va ma'lumot almashinuvini ISO standartlariga moslash tavsiya etiladi. Shuningdek, chizma bosqichlariga avtomatik xabar berish tizimini qo'shish orqali tadbirkorlik sub'ektlariga jarayonning qaysi bosqichda ekanligini real vaqtda kuzatish imkoniyatini berish mumkin.

XULOSA

Dissertatsiya ishida va ilg'or xorij tajribalar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'lindi:

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligida salbiy farq summalarini qoplash tartibini takomillashtirish zarurati mamlakatning soliq tizimidagi mavjud muammolar bilan bog'liq. QQS bo'yicha salbiy farq bu soliq to'lovchilar tomonidan to'langan QQS summasi hisoblangan QQS summasidan ortiq bo'lgan vaziyatlarda yuzaga keladi. Bunday holatlar ko'pincha eksport qiluvchi korxonalarda yoki import qilingan tovarlar bo'yicha ortiqcha soliq to'lovlari yuzaga kelganida kuzatiladi. Salbiy farqlarni o'z vaqtida qoplamaslik davlat budjetiga tushumlarning qisqarishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ortiqcha to'langan QQS summasi qaytarib berilmasligi biznes sub'ektlari moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta bizneslar uchun jiddiy muammodir.

Bu borada yuzaga kelgan muammolar davlat budjetining mablag'larini o'z vaqtida shakllantirishga, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashga xalal berishi mumkin. Moliyaviy ta'minot kamaysa, davlat ijtimoiy xizmatlarni kamida ham ta'minlay olmaydi, bu esa aholining turmush darajasini pasaytiradi. Bunday vaziyatlar iqtisodiy barqarorlikni yomonlashtirishi, tadbirkorlik muhitini murakkablash-tirishi va mahalliy iqtisodiy rivojlanishni to'sib yuborishi mumkin.

Tadqiqot ishi tayyorlash davomida amalga oshirilgan tahlillar hamda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasiga tayangan holda quyidagi xulosalar shakllantirilib, amaliy tavsiya va ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

1. QQSning salbiy farq summasi bo'yicha kompensatsiya jarayonlarini soddalashtirish lozim ya'ni soliq to'lovchilarga salbiy farqlarni qaytarish jarayonlarini tezlashtirish va ularni yanada shaffof qilish maqsadida elektron hujjat almashinuvini joriy qilish. Bu soliq to'lovchilar uchun ortiqcha yuklamani kamaytiradi va soliq organlari faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

2. QQS hisob-kitobini avtomatlashtirish orqali QQS ma'murchiligida ortiqcha to'lovlar va salbiy farqlar yuzaga kelmasligi uchun soliq hisobotlarini to'liq avtomatlashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim. Bu ortiqcha yoki noto'g'ri to'lovlarning oldini oladi va soliq to'lovchilarning moliyaviy oqimlarini yaxshilashga yordam beradi.

3. Qonunchilikka aniqlik kiritish lozim bo'lib, unda QQSni qaytarish tartibi bo'yicha qonunchilikni yanada takomillashtirish, xususan, salbiy farqlarni qoplash jarayonidagi barcha talablarni aniq belgilash kerak. Soliq organlari va tadbirkorlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni kamaytirish uchun, tushunarli va aniq qoidalar joriy etilishi zarur.

4. Salbiy farqlarni qaytarishning avtomatik mexanizmlarini joriy etish lozim. Bunda, bu mexanizm tadbirkorlarga o'z mablag'larini tezroq olish imkonini beradi va soliq organlarining o'ziga xos yuklamasini kamaytiradi.

5. Eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalar uchun salbiy farqlarni qaytarish jarayonini soddalashtirish va tezlashtirish bo'yicha maxsus imtiyozlar joriy etilishi

lozim. Bu eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozordagi raqobatbardoshlikni yaxshilashga yordam beradi.

6. Mamlakatlararo tajriba almashish orqali QQSning salbiy farqlari bilan bog'liq masalalarda chet el tajribasini o'rganish va mamlakatimiz shart-sharoitlariga mos ravishda tatbiq etish lozim. Soliq tizimini global me'yorlar asosida takomillashtirish uning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Bu takliflar amalga oshirilsa, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ma'murchilik jarayonlari samaradorligi oshadi, davlat budjetiga tushumlar yaxshilanadi va tadbirkorlarning ishbilarmonlik muhiti yaxshilanadi.

Ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish, daromadlarni samaraliroq yig'ish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va soliq to'lovchilar o'rtasida qonunchilikni kuchaytirishga olib keladi hamda davlatimizda aksiz solig'ini soliqqa tortish mexanizmi yanada takomillashtirilishiga erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ТУРДАЛИЕВ ЭЛДОР ШУХРАТЖОН УГЛИ

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПОРЯДКА ВОЗМЕЩЕНИЯ
СУММ ОТРИЦАТЕЛЬНОЙ РАЗНИЦЫ ПРИ
АДМИНИСТРИРОВАНИИ НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ
СТОИМОСТЬ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером В2025.1.PhD/Iqt 5080 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Бозоров Акмал Аманович**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Ташмуродова Бувсара Эгамовна**
доктор экономических наук, профессор

Ашурова Насиба Батировна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский международный университет
финансового управления и технологий**

Защита диссертации состоится в ____ часов « ____ » _____ 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. (регистрационный номер № ____). Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета. Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(протокол реестра № ____ от ____ « ____ » _____ 2025 года).

С.У. Мехмонов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой экономике совершенствование порядка возмещения сумм отрицательной разницы по налогу на добавленную стоимость (НДС) имеет важное значение, поскольку, в первую очередь, уменьшает потребность в инвестициях за счёт улучшения денежных потоков субъектов бизнеса, повышает полезность налогового бюджета и ограничивает процессы коррупции и уклонения от налогов. Например, в исследовании, подготовленном Европейской комиссией, подчёркивается, что «задержки в возврате сумм отрицательной разницы могут негативно сказываться на предпринимательской деятельности. В то же время, осуществление этой процедуры в электронной форме позволяет повысить контроль и эффективность учётных процессов на 12–15%»¹⁸. Из этого очевидно, что совершенствование механизмов возмещения сумм отрицательной разницы является важным условием повышения эффективности налогового администрирования и стимулирования экономического роста. Существуют сложности в применении этого налога и вопросы, требующие анализа и решения в части расчёта налоговой базы, в связи с чем проведение научных исследований в данном направлении сохраняет свою актуальность.

Согласно мировому опыту, совершенствование налоговой системы играет важную роль в обеспечении устойчивости экономического роста. Глубокий анализ закономерностей развития современной глобальной экономики и налоговых факторов показывает, что в развитых странах ключевое значение придаётся совершенствованию администрирования налога на добавленную стоимость, возмещению сумм отрицательной разницы и оптимизации данной процедуры. Кроме того, особое внимание уделяется электронной подаче отчётности по НДС, использованию современных информационных технологий для его взимания, а также созданию благоприятной инвестиционной среды для развития бизнеса.

В Узбекистане применение современных технологий в совершенствовании налоговой системы имеет особое значение. В частности, процессы осуществления налоговых платежей и подачи налоговой отчётности в электронной форме широко внедряются в различных государствах. Такой подход не только упрощает взаимодействие между налогоплательщиками и налоговыми органами, но также способствует увеличению налоговых поступлений и улучшению соблюдения налогового законодательства. Процесс уплаты налогов через электронные системы служит не только экономии времени, но и снижению издержек налогоплательщиков. В частности, цифровые технологии повышают эффективность сбора, анализа и обработки налоговых данных. Кроме того, государства стремятся улучшить деловой климат посредством снижения налогового бремени. Путем снижения налоговых ставок или отмены отдельных видов налогов государства стремятся

¹⁸Источник: taxation-customs.ec.europa.eu

поддерживать предпринимателей и создавать для них благоприятную инвестиционную среду. В частности, широко применяется политика снижения налогов для стимулирования развития малого и среднего бизнеса. Внедрение упрощённой и цифровой налоговой системы для предпринимателей играет важную роль в привлечении не только местных, но и иностранных инвестиций. Государства ставят целью достижение экономического роста через улучшение инвестиционного климата и обеспечение комфортных условий для бизнеса. Налоговые реформы, наряду со стимулированием предпринимательства, могут привести и к положительным изменениям в других секторах экономики. Например, повышение эффективности налоговой системы ведёт к росту бюджетных доходов, что позволяет расширять социальные программы, реализуемые государством. Одновременно, снижение налогового бремени может способствовать увеличению доходов потребителей и росту их расходов, что служит стимулированию внутреннего потребления. Ввиду взаимосвязанности различных секторов экономики, проводимые реформы в налоговой системе играют ключевую роль в обеспечении долгосрочной общей экономической устойчивости.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует реализации задач, установленных в указах Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года №УП-16 «О Государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан-2030» в «Год защиты окружающей среды и «зелёной экономики», от 21 февраля 2024 года №УП-37 «О Государственной программе «Год поддержки молодёжи» по реализации стратегии «Узбекистан-2030», от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030», от 28 января 2022 года №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы»; Постановлении Президента Республики Узбекистан от 24 августа 2021 года №ПП-5231 «О совершенствовании администрирования налога на добавленную стоимость»; Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 29 сентября 2025 года №ПКМ-610 «О мерах по упрощению системы возврата суммы налога на добавленную стоимость по отдельным товарам (услугам), приобретенным с использованием социальной карты категориями населения, нуждающимися в социальной защите», от 11 марта 2025 года №ПКМ-160 «О внесении изменений в Положение о порядке возмещения суммы налога на добавленную стоимость», от 14 августа 2020 года №ПКМ-489 «О мерах по совершенствованию администрирования налога на добавленную стоимость и налогообложения, связанного с иностранными юридическими лицами», от 10 февраля 2020 года «Об утверждении Положения о порядке продления срока уплаты налога на добавленную стоимость для плательщиков налога на добавленную стоимость при импорте товаров (работ, услуг)», а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и

